

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025-yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar

Hay'atning kengaytirilgan yig'ilishini Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i U.Djumanazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni va joriy yilning 24-fevral kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda hududiy statistika organlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

- Statistika boshqarmasida hujjatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, har bir nazoratdagi hujjat bo'yicha ijrochilarni va ijro muddatlarini aniq belgilash va hujjatlar ijrosi yuzasidan "edo.ijro.uz" dasturi orqali kunlik nazorat olib borilmoqda.

- Yig'ilish davomida Farmonda vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash zarurligi qayd etildi hamda bu borada mas'ul shaxslarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shu bilan birga, yig'ilishda statistika faoliyatini tashkil etish, boshqarma hamda tuman va shahar bo'limlari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq hamda hay'at vakolatiga kiruvchi tegishli masalalar xam muhokama etilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

- Hisobot davrida, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari (axborotnoma, byulleten, to'plam va boshqa nashrlar) tayyorlanib, hokimlik va idoralarga taqdim etildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025-yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar, ishlab chiqilgan tahliliy statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 59 871,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,4 foizga o'sdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatida Buxoro viloyatida iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 38 359 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 28 114 tani, faoliyat ko'rsatmayotganlari esa 10 245 tani tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat Sanoat korxonalari tomonidan 35 863,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3 foizni tashkil qildi.

Qurilish korxonalari tomonidan 13 798,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari olib borildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 foizni tashkil qildi.

Chakana tovar aylanmasining hajmi 17 020,7 mlrd so'mni (o'tgan yilga nisbatan 108,1 foiz) va xizmatlar ko'rsatish hajmi 29 510,4 mlrd so'mni (o'tgan yilga nisbatan 113,1 foiz) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 33,2 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 foizga yetdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 2024-yilning mos davriga nisbatan 76,9 ni tashkil qildi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2025-yil 3-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.